



UNIQUE EXHIBITS OF THE STATE MUSEUM OF HISTORY AND CULTURE OF NAMANGAN REGION

Otabek Solijonov

Lecturer

*Tashkent branch of the University of Business and Science
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: museum, exhibit, cultural heritage, historical monuments, art, tourism, interactive technologies, scientific research.

Received: 18.02.25

Accepted: 20.02.25

Published: 22.02.25

Abstract: this article analyzes the role of museums in society and their cultural and educational significance. museum exhibits have historical, scientific and aesthetic value, through which the cultural heritage of the past, scientific discoveries and works of art are transmitted to generations. the article also focuses on the issues of organizing the expositions of the state museum of history and culture of namangan region, their preservation and enrichment with the help of modern technologies. the role of museums in the education of the younger generation and their connection with the field of scientific research and tourism are highlighted.

NAMANGAN VILOYATI TARIXI VA MADANIYATI DAVLAT MUZEYINING NOYOB EKSPONATLARI

Otabek Solijonov

o'qituvchi

*University of Business and Science universitetining Toshkent filiali
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: muzey, eksponat, madaniy meros, tarixiy yodgorliklar, san'at, turizm, interaktiv texnologiyalar, ilmiy tadqiqot.

Annotatsiya: Ushbu maqolada muzeylarning jamiyat hayotidagi o'rni va ularning madaniy-ma'rifiy ahamiyati tahlil qilinadi. Muzey eksponatlari tarixiy, ilmiy va estetik qimmatga ega bo'lib, ular orqali o'tmish madaniy merosi, ilmiy kashfiyotlar va san'at asarlari avlodlarga yetkaziladi. Shuningdek, maqolada namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi

ekspozitsiyalarini tashkil etilishi, ularning saqlanishi va zamonaviy texnologiyalar yordamida boyitilishi masalalariga e'tibor qaratiladi. Muzeylarning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni hamda ularning ilmiy-zadqiqot va turizm sohasi bilan bog'liqligi yoritib beriladi.

УНИКАЛЬНЫЕ ЭКСПОНАТЫ ГОСУДАРСТВЕННОГО МУЗЕЯ ИСТОРИИ И КУЛЬТУРЫ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ

Отабек Солиджонов

преподаватель

Ташкентский филиал *University of Business and Science*

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: музей, экспонат, культурное наследие, исторические памятники, искусство, туризм, интерактивные технологии, научные исследования.

Аннотация: в статье анализируется роль музеев в обществе и их культурно-образовательное значение. музейные экспонаты имеют историческую, научную и эстетическую ценность, через них из поколения в поколение передается культурное наследие, научные открытия и произведения искусства прошлого. в статье также уделено внимание вопросам организации экспозиций государственного музея истории и культуры наманганской области, их сохранению и обогащению с помощью современных технологий. будет подчеркнута роль музеев в образовании подрастающего поколения и их связь со сферой научных исследований и туризма.

Muzeylar – madaniy, ilmiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan muassasalar bo‘lib, ular tarixiy, badiiy, ilmiy va madaniy qimmatga ega bo‘lgan ashyolarni yig‘ish, saqlash, tadqiq qilish va namoyish qilish bilan shug‘ullanadi.

Muzeylar jamiyat hayotida katta ahamiyatga ega bo‘lib, ular nafaqat tarixiy va madaniy merosni saqlash, balki aholining bilim va dunyoqarashini kengaytirish, vatanparvarlik ruhini mustahkamlash, turizmni rivojlantirish va iqtisodiy farovonlikka hissa qo‘sish kabি muhim vazifalarni bajaradi.

Tarixiy jarayonlardan parchalarni o‘zida jamlagan bu maskanlar odamlarni tarixiy bilimlar bilan tanishtiradi, ularning o‘tmishga bo‘lgan tushunchasini kengaytiradi, muzeylar yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi, ularning milliy o‘ziga xosligini shakllantiradi, xalqning milliy va madaniy qadriyatlarini avloddan-avlodga yetkazadi, mahalliy va xalqaro miqyosda madaniy almashinuvga xizmat qiladi. Iqtisodiy tarafdan muzeylar sayyohlarni o‘ziga jalb qilish orqali mamlakat iqtisodiyotiga foyda keltiradi, esdalik mahsulotlari sotish, ekskursiyalar, restoran va

mehmonxonalar tashkil etish orqali mahalliy tadbirkorlik rivojiga turtki bo‘ladi, eng asosiysi muzeylar odamlar dam olish va madaniy hordiq chiqarish joyi sifatida xizmat qiladi.

Bugungi kunda respublikamizda 100 dan ortiq muzeylar faoliyat yuritmoqda. Bu muzeylar orasida Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyining o‘ziga xos o‘rniga ega bo‘lib, ushbu maskan yurtimizdagi keksa va navqiron muzeylar sirasiga kiradi. Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi ma’naviy-ma’rifiy muassasa bo‘lishi bilan birga ajdodlar merosini saqlaydigan, avlodlarga ko‘rsatib faxr-iftixon tuyg‘ularini shakllantiruvchi maskandir.

Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyida 47 mingdan ortiq eksponatlar jamlangan bo‘lib, ular orasida ma’naviy boylik hisoblangan noyob qo‘lyozmalar ham o‘rin olgan[1].

Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi xazinasida 281 dona arab, fors va turk hamda eski o‘zbek yozuvida yozilgan kitoblar mavjud. Eng noyob qo‘lyozma asarlar 54 tani tashkil etsa, 227 tasi toshbosma va bosma kitoblardir. Qo‘lyozmalarни varaqlar ekansiz o‘sha davrdagi xattotlar san’atiga va asar muallifini moddiy jihatdan asarlarini yozdirishiga va kelgusi avlodga qoldirganligi tahsinga loyiqidir. Biz ana shu ma’naviy meros ota-bobolarimiz hayotini, g‘oyalarini va turmush tarzini yoritishda asosiy manba va yo‘lchi yulduz vazifasini o‘tamoqda.

Muzeyda saqlanayotgan asarlarni badiiy, ilmiy, diniy, axloqiy, savdo kabi turkumlarga bo‘lish mumkin.

5813/3-raqamda saqlanayotgan eksponat Alisher Navoiyning “Xamsa” asari bo‘lib, arab tilida “Farxod va Shirin”, “Saddi Iskandariy”, “Layli va Majnun” dostonlari bayon etilgan, 8150 raqamdagagi qo‘lyozmada esa Alisher Navoiyning g‘azallari turk tilida xattotlar tomonidan ko‘chirilgan[2].

5244/3-raqamli qo‘lyozma “Xazrat Ali jangnomasi” bo‘lib, u XVIII asrda yozilgan. Kitob qalin jildli va usti islomiy naqshlar bilan bezatilgan. Kitob arab tilida bitilgan va Xazrat Alining harbiy yurishlaridagi janglari bayon etilgan.

5244/4 -raqamli qo‘lyozma esa “Choxyor” kitobi bo‘lib, unda arab grafikasida fors tilida musulmonchilikni ilk saboqlari yoritilgan.

8148-“Aqoid” nomli qo‘lyozma bo‘lib, 1874-yilda Muxammadso‘fi Andijoniy tomonidan yozilgan va o‘sha davr xattoti tomonidan ko‘chirilgan. Kitob arab tilida bitilgan va unda islom dini qoidalari va ruknlari haqida ma’lumotlar bayon etilgan.

5198/2-raqamli qo‘lyozma 1704-yilda Abdulqosim ibn Muhammad tomonidan yozilgan “Shariat qonunlari” kitobidir. Bu kitobda musulmonchilik va shariat qonunlari to‘g‘risidagi savollarga javob olish mumkin. Chunki bu asarda hayotiy voqealar misolida bahs munozaralar orqali qoidalar yoritilgan.

5244/20-raqamli qo‘lyozma xijriy 1241-yilda Xo‘jamurod ibn Durbor so‘fi tomonidan yozilgan “Mantiq” asari bo‘lib, u 240 betdan iborat va unda diniy-falsafiy rivoyatlar orqali mantiq ochib berishga harakat qilingan.

8144-raqamda Qo‘qon xoni Amir Umarxon qalamiga mansub “Devoni Amir Umarxon” turk tilida arab grafikasida yozilgan. Bu kitob qalin muqovali va 224 betdan iborat. Hijriy 1316-yilda Toshkentda bosilgan. Asar g‘azallar ya’ni nazmiy usulda xonning tarjimayi xoli, kechinmalari, xonlikdagi va hayotdagi voqealar she’riy tarzda yoritilgan.

Yana eng nodir va noyob qo‘lyozmalarga Burxoniddin al-Marg‘inoniyning “Al-Hidoya” asari (KP- № 9780) hisoblanadi.

Muzeyda saqlanayotgan Burxoniddin al-Marg‘inoniyning “Al-Hidoya” asari hijriy 1326-yilda Mavlono Mahmud Hasan tomonidan Hindistonning Kishvar nomli bosmaxonasida bosib chiqarilganx[3].

Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyida saqlanayotgan eng noyob ma’naviy merosi Burxoniddin al-Marg‘inoniyning “Al-Hidoya” asari Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyining qo‘lyozmalar bo‘limida saqlanayotgan noyob eksponatlar safidan o‘rin olgan va KP № 9780 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Bu nodir va noyob hisoblangan kitobni Namangan shahrida yashovchi A.Abdurahimov tomonidan 1987-yilda muzeyga olib kelingan. Hozirda u muzey xazina bo‘limida saqlanib kelinmoqda.

Muzeyda saqlanayotgan Burxoniddin al-Marg‘inoniyning “Al-Hidoya” asari hijriy 1326-yilda Mavlono Mahmud Hasan tomonidan Hindistonning Kishvar nomli bosmaxonasida bosib chiqarilgan.

“Al-Hidoya” asari 1178-yil Burxoniddin Marg‘inoniy tomonidan yozilgan, bu asarda islom dini va shariat qonunlari to‘la bayon etilgan va shu bilan birga islom dini qonun qoidalari jamlangan fiqh ilmiga asos solindi. Bu kitob XX asr boshlarigacha Islom olamida asosiy qonun sifatida qo‘llanma bo‘lgan va unda ko‘rsatilgan yo‘l-yo‘riqlarga tayanib ish olib borilgan[4].

Mazkur kitob nafaqat Movarounnahrda, balki butun islom mamlakatlarida nashr etilgan va bir necha tillarga tarjima qilingan.

Al-Marg‘inoniyning “Al-Hidoya” asari fiqx ilmi bo‘yicha eng aniq va izchil, mukammal asar bo‘lgani sabab asrlar davomida islom huquqshunosligi bo‘yicha nufuzli manba sifatida foydalanib kelinmoqda.

Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlar muzeyi o‘zining bir qator san’at asarlari bilan ham mashhurdir. Shulardan biri Valixo‘jayev “Fojea” asari hisoblanadi. I.Valixo‘jayevning “Fojea” asari 1990-yilda yaratilgan va ko‘rgazmalarda namoyish etilgan. Ko‘rgazmadan so‘ng bu asarni “Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi”ga topshirilgan. Asarda atrofni o‘rab olgan ajoyib tabiatni, parranda va hayvonot dunyosini saqlab qolish, dunyoda progressiv

insoniyatni tashvishga solgan ekologiya og‘riqli muammolari ranglarda tasvirlangan. Rassom qalbini yaralagan bu mavzu Namangan ovchilik jamiyatida rassom-bezatuvchi bo‘lib ishlayotgan paytlaridan o‘chmas iz qoldirgan bo‘lsa ajab emas. “Fojea” asarini tomosha qilar ekansiz, yuragingiz hayajondan ura boshlaganini his qilasiz. Daraxt ustidagi qush uyasida og‘zini ochib, ovqat kelishini, onasini kutib turgan polapon va atrofni o‘rab olgan zaharli tutun har bir kishini e’tiborsiz qoldirmaydi. Asarda “Odamlar! ehtiyot bo‘ling! Tabiatni, asrang!” deya butun borliqni va insoniyatni, barcha bir-birini hushyorlikka chorlab bong urayotganday taassurot qoldiradi.

Ibrohim Valixo‘jayevning bir qator jumladan, “Orol”, “Sarichelak”, “Oy tutilishi” asarlarida tasvirlangan tabiatga bo‘lgan muhabbatni polotnolarda aks ettirganini ko‘ramiz. Biz san’at ixlosmandlari uning ijodiy ishlarida o‘z ixlosmandlarini ma’naviy boyitadigan bugungi va ertani o‘ylashga majbur qiladigan falsafaga boy asarlarini ko‘ramiz.

Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlar muzeyi eksponatlari orasida Farg‘ona vodiysining qadimiy poytaxti Axsikentdan topilgan arxeologik topilmalar o‘ziga xos o‘ringa ega. Xususan, Axsikent sopol quvuri (KP-№900). Farg‘ona vodiysidagi qadimiy shaharlarning har biri o‘ziga xos hunarmandchilik san’atining betakror tarixi va ko‘rinishiga ega. Bu borada qadimgi Farg‘ona poytaxti Axsikent sopol quvurlari tarixi diqqatga sazovor[5].

Axsikent qal’a devorlarini ochish vaqtida turli hajmdagi sopol quvurlarning qoldiqlariga ham duch kelindi. Bu esa shaharning suv ta’minotini o‘rganishga yordam berdi.

Devorlar ostidan 3,5 metr uzunlikdagi axsikentlik ustalar tomonidan yasalib, shu yerdagi xumdonlarda pishirilgan sopol quvurlar-suv o‘tkazgichlar topildi. Bular asosan antik davrga xos suv inshootlari bo‘lib, o‘rta asrlarga kelib, gumbaz shaklidagi pishiq g‘ishtdan yasalgan vodoprovod barpo etildi. Hozirda ana shunday sopol quvurli suv yo‘llaridan yaqin 200 metr uzunlikdagisi ochib o‘rganildi.

Axsikent shahristonning ikki joyida yer osti suv tarmog‘i ham ochildi. Bu sopol quvurli suv yo‘li X asrning oxirlarida uzoq vaqlar xizmat qilishga mo‘ljallab qurilgan buyuk injenerlik inshootidir. Axsikentlik ustalar bu ajoyib suv yo‘lini hozirgi metro qurilishi shaklida bunyod etishgan. Uni barpo etishda avval yer osti tunneli qazilgan bo‘lib, so‘ngra uning ichida pishiq g‘ishtdan yarim gumbazsimon inshoot qurib, uning tubiga katta diametrli sopol quvurlar yotqizilgan. Suv ana shu quvurlar orqali oqqan. Bunday sopol quvur parchalarini shahriston va rabotning hamma joyida uchratish mumkin. Bu suv tarmog‘i shahar aholisiga ikki yuz yildan ziyodroq xizmat qilgan.

1970 – 1980-yillarda olib borilgan qazishmalar natijasida Axsikentga Kosonsoydan yer osti orqali suv olib kelinganligi aniqlandi.

Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyida Axsikent arxeologik yodgorligidan topilgan juda ko‘p suv quvurlari saqlanmoqda. Eng katta suv quvur uzunligi 45 sm, qalinligi 1 sm, diametri 23 smdan iborat.

Shu kabi turli hajmdagi suv quvurlardan 20ga yaqini xazinadan joy olgan va ekspozitsiyada uzunligi 59 sm, qalinligi 1,5 sm, diametri 14 smlik quvurlar ham namoyish etilmoqda.

Hozirga qadar xalq o‘rtasida shunday bir rivoyat yuradi. Chunonchi, Axsikentga yovlar hujum qiladi, lekin shahar aholisi uzoq vaqt o‘zini himoya qilib taslim bo‘lmaydi. Ensasi qotgan dushman aholini suvsizlik orqali taslim etishni bilib oladi va shaharga suv kirish yo‘lini to‘sish chorasini qidiradi. Buning uchun yer ostidan kelayotgan suv yo‘li qayerdaligini aniqlash va shaharni taslim qilish uchun shaharlik ayollarning biridan foydalanadilar. Sotqin ayol g‘oyatda sir saqlanayotgan yer osti suv yo‘li haqida dushmanqa xabar beradi va uning ko‘rsatmasi bilan suv yo‘lining yuqori qismidan suv tindirgich orqali quvurga somon oqiziladi. Shunday qilib dushman shahar aholisini suv yo‘lini berkitadi va suvsizlik boshlanadi. Oradan bir necha kun o‘tgach, shahar aholisi suvsizlikka chiday olmay taslim bo‘ladi. Bu rivoyat albatta. Lekin har bir rivoyatda ozmi-ko‘pmi haqiqat yashirin.

Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi eng noyob eksponatlari 2010-yilda yana bittaga ko‘paydi. Karkidon – indikoteriy (KP-№16028). Bu Namangan shahriga 2009-yil 6-avgustda O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovni Namanganga tashrifi chog‘ida Namangan viloyati shaharsozligini va qiyofasini tubdan o‘zgartirish to‘g‘risidagi 1170-sonli qarori asosida Namangan shahri Chorsu yaqinida joylashgan Alisher Navoiy nomli teatr atrofidagi obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlari jarayonida topilgan hayvon bosh suyagidir.

Bu hayvon bugungi kungacha yetib kelmagan, qirilib nobud bo‘lgan eng yirik hayvonlar turkumiga mansubdir. Bu noyob topilmani topganlar muzeyga xabar berdilar va uni 2010-yil 28-may kuni Namangan viloyat o‘lkani o‘rganish muzeyi bo‘lim mudiri, tarix fanlari nomzodi E. Mirzaliyev tomonidan muzeyga olib kelindi[6].

Bu hayvon bosh suyagini o‘rganish va aniqlik kiritish uchun Toshkent davlat tabiat muzeyi direktori Zubaydulla Karimovga uning Namanganga tashrifi chog‘ida murojaat etildi va noyob topilmani aniqlashtirish masalasi birmuncha yengillashdi. Topilgan bosh suyagi poytaxt olimlari tomonidan o‘rganilib, tegishli tahlil va ekspertizadan so‘ng bir to‘xtamga kelishdi. Unda aytishicha, Namangan shahridan topilgan noma’lum hayvonning bosh suyagi indrikoteriyiga (ilmiy atamasi indricotherium) tegishli. Uning balandligi 5 metrga yetib, o‘z davrida zamin kurrasidagi eng yirik sute Mizuvchi mahluqlaridan sanalgan. Indrikoteriylar kichik to‘dalar holida hozirgi Qozog‘iston hududida kezib yurgan, o‘t-o‘lan va daraxtlar shohi bilan oziqlangan. Janubiy Qozog‘iston va Orolbo‘yi mintaqalaridagi qazishmalar vaqtida uning skeletlari topilgan.

Rovojlanish nuqtai nazardan indrikoteriylar karkidonlarning eng qadimiy avlodlaridan (lekin ular burnida shohi bo‘lmagan) va yer tarixining to‘rtlamchi davrida qirilib bitgan. Bu davr geoxronologiya ilmi hisob-kitobiga ko‘ra, bizning zamonga nisbatan 600 ming yildan uch yarim million yilgacha oldingi zamondir. Uni artopogen (to‘rtlamchi) davr deb ataladi.

Navoiy nomidagi teatr maydonida tuproq ostidan chiqqan topilma va uning ilmiy xulosasida jiddiy ma’no bor. Demak, bundan 600 ming 3,5 million yil burun ham Namangan hududi dasht bo‘lmagan. Balandligi 5 metrlik, uzunligi 8 metrlik jonzotlar yashaganki, binobarin, ularga zarur o‘t – o‘lan, daraxt ham o‘sgan.

Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi yana bir betakror va noyob eksponatga ega bo‘ldi ya’ni Namangan shahridan topilgan bus-butun Sak jangchilari xanjari uning xazinasiga topshirildi. Sak jangchilari xanjari (KP- 1813 mil.av. III-II asrlar). 1988-yil 5-aprel kuni bu noyob topilma o‘rganilib, tahlil etilganda u miloddan avvalgi III-II asrlarga oidligi manbalar asosida tasdiqlandi.

Bunday ajoyib eksponatlarga nazar tashlar ekanmiz ota-bobolarimiz hunariga yuksak ehtirom tuyg‘ulari paydo bo‘ladi. Ayniqsa, eramizdan avvalgi III-II asrlarga oid qadimgi ajdodlarimiz bo‘lgan sak qabilasi jangchilari xanjari va boshqa shunga o‘xshash qimmatbaho noyob eksponatlarni bizning zamonamizgacha yetib kelishi va hozirgi yoshlарimizning ularni o‘z ko‘zlar bilan ko‘rib, ular qalbida o‘sha davr tarixiga nisbatan hurmat va ehtirom hissi katta manba bo‘lib xizmat qiladi.

Namangan shahrining Marg‘ilon ko‘chasida joylashgan sobiq avtorem zavod hududidan topilgan qadimgi sak qabilasi jangchisi xanjarini 1988-yil 5-aprelda Namangan shahrida yashovchi mahalliy aholi vakili tomonidan muzeyga topshirilgan. Eramizdan avvalgi III asrdan qadimgi sak qabilalari orasida mis va qalay aralashmasi-bronzadan pichoqlar, begiz, igna, bolta, uzuk, munchoq, sirg‘a tayyorlash keng yo‘lga qo‘yildi. Chunki, bronza (brinj) misga qaraganda katta afzalliklarga ega bo‘lgan. Ishlab chiqarishda bronzaning ishlatila boshlanishi bilan jamiyat taraqqiyotida bronza davri boshlangan. Mis va bronza davriga oid madaniyat yodgorliklari O‘zbekistonning ko‘plab joylari qatori Namanganning Bibionamozor (Buonamozor) arxeologiya yodgorligida ham aniqlangan[7].

Mazkur xanjar har bir sak qabilasi uchun ajralmas bir quroli bo‘lgan. Bu an’ana avloddan-avlodga o‘tib, to hozirgi davrgacha davom etib kelmoqda. Chunki, har bir o‘zbek erkaklari milliy kiyim-kechaklari bilan birga, albatta belbog‘ga ilib yurilgan qinga solingan pichoqni uchratishimiz mumkin.

Mana shu kabi eksponatlarni izlab topish, o‘rganish, avaylab saqlash ishlari muzeyimizda yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Fikrimizning dalili sifatida 2007-yilning fevral oyida Marg‘ilon shahrining 2000-yilligini nishonlash arafasida o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi muzeylari

festivalida yurtimiz tarixiga oid eng noyob eksponat egasi nominatsiyasida bizning muzeyimiz faxrli 1-o‘rinni olganligini e’tirof etish mumkin.

Qariyb 100 yillik tarixga ega bo‘lgan Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyida hozirgi kunga kelib 100 mingdan ziyod eksponatlarni o‘zida jamlagan va saqlab kelmoqda.

Darhaqiqat, O‘zbekistonda so‘nggi yillarda barcha sohalar singari muzeylar faoliyatiga alohida e’tibor qaratilmoqda, xususan, yangi ekspozitsiyalar yaratilmoqda, restavratsiya ishlari olib borilmoqda, muzeylarda zamонавиу texnologiyalar joriy etilmoqda, biroq, muzeylarga odamlarni, ayniqsa, yoshlarni jalb qilish uchun muzeylarda virtual reallik va sun’iy intellekt yordamida tarixiy jarayonlarni jonlantirish, interaktiv ekspozitsiyalar orqali bolalar va yoshlarni qiziqtirish, mobil ilovalar yordamida audio-gidlar, onlayn ekskursiyalar yaratish, taniqli insonlarni muzeylarga taklif etish, talabalar yoki maktab o‘quvchilari uchun maxsus chegirmalar va bepul kirish imkoniyatlarini yaratish maqsadga muvofiq.

Foydalanimilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyining joriy arxividan.
2. Убайдуллоҳ А. Қўлёзмалар шохидлик беради. // Наманган хақиқати. 1989 йил, 14 февраль.
3. Мирзалиев Э. Наманган маданияти тарихидан лавхалар. –Наманган, 1994. - Б. 94.
4. Мирзалиев Э. Наманган маданияти тарихидан лавхалар. – Наманган, 1994. - Б. 97.
5. Анорбоев А. Қадимги Ахсикент // Наманган хақиқати. – 2000 йил, 15 апрель.
6. Қорабоев. У. Ноёб топилма // Наманган хақиқати. 2010 йил, 7 июнь.
7. Нажмиддин Фазлиддин ўғли, Мухаммад Ҳаким, Жўрахон Мухаммад Хоғиз ўғли. Чуст тарихи. – Чуст: Наманган вилояти ноширлик бўлими, 1995. – Б. 71.